# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



# SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- sentabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 12 176 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 9 970 ta).

Shuningdek, ushbu davrga 21 274 ta korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,6 % ni tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2024- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 274 | 14,2 % |
| Sanoat | 216 | 16,5 % |
| Qurilish | 45 | 5,5 % |
| Savdo | 516 | 13,5 % |
| Tashish va saqlash | 38 | 13,1 % |
| Yashash va ovqatlanish | 128 | 19,2 % |
| Axborot va aloqa | 53 | 29,6 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 15 | 8,1 % |
| Boshqa turlar | 146 | 4,9 % |












Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 1 431 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 36,1 foiz, qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 19,1 foiz, sanoat – 15,1 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida – 20,9 foiz, Oqoltin – 10,8 foiz, Mirzaobod – 10,5 foiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 299 | 10,7 % | Boyovut t. | 121 | 11,1 % |
| Oqoltin t. | 155 | 18,4 % | Sayxunobod t. | 95 | 10,4 % |
| Mirzaobod t. | 150 | 14,4 % | Yangiyer sh. | 92 | 10,5 % |
| Sardoba t | 145 | 14,0 % | Xovos t. | 90 | 11,2 % |
| Sirdaryo t. | 138 | 9,2 % | Shirin sh. | 19 | 6,6 % |
| Guliston t. | 127 | 12,9 % | | | |

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni, birlikda




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**1 935**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**1 312**

Sanoat

**821**

Qurilish

**3 824**

Savdo

**289**

Tashish va saqlash

**666**

Yashash va ovqatlanish

**179**


Axborot va aloqa

**185**

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**2 965**

Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- sentabr holatiga 12 176 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 31,4 foiz, qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 15,9 foiz, sanoat – 10,8 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida – 23,0 foiz, Sirdaryo – 12,3 foiz, Boyovut – 8,9 foiz va Mirzaobod – 8,6 foiz tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 2 801 | Sayxunobod t. | 911 |
| Sirdaryo t. | 1 500 | Yangiyer sh. | 877 |
| Boyovut t. | 1 089 | Oqoltin t. | 842 |
| Mirzaobod t. | 1 042 | Xovos t. | 802 |
| Sardoba t. | 1 038 | Shirin sh. | 289 |
| Guliston t. | 985 | | |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni, birlikda




## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**273**

**14,2 %**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**215**

**16,4 %**



Sanoat

**45**

**5,5 %**



Qurilish

**516**

**13,5 %**



Savdo

**37**

**12,9 %**



Tashish va saqlash

**128**

**19,3 %**



Yashash va ovqatlanish

**53**

**31,7 %**




Axborot va aloqa

**15**

**11,1 %**



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**107**

**11,6 %**



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 389 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Guliston sh. | **282** | 12,6 % | Boyovut t. | **119** | 13,9 % |
| Oqoltin t. | **153** | 21,3 % | Sayxunobod t. | **94** | 12,6 % |
| Mirzaobod t. | **148** | 16,7 % | Xovos t. | **89** | 14,3 % |
| Sardoba t | **143** | 15,7 % | Yangiyer sh. | **87** | 11,3 % |
| Sirdaryo t. | **132** | 10,6 % | Shirin sh. | **18** | 8,1 % |
| Guliston t. | **124** | 15,1 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni, birlikda




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- sentabr holatiga 10 035 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 38,1 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 19,1 foiz, sanoat – 13,0 foiz, qurilish – 8,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 2,9 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,3 foiz, boshqa turlari – 9,2 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 2 242 | Yangiyer sh. | 768 |
| Sirdaryo t. | 1 247 | Sayxunobod t. | 745 |
| Sardoba t. | 909 | Oqoltin t. | 719 |
| Mirzaobod t. | 885 | Xovos t. | 622 |
| Boyovut t. | 857 | Shirin sh. | 221 |
| Guliston t. | 820 | | |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni, birlikda




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

273
14,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

214
16,8 %

Sanoat

45
5,6 %

Qurilish

516
13,5 %

Savdo

37
12,9 %

Tashish va saqlash

128
19,3 %

Yashash va ovqatlanish

53
31,9 %


Axborot va aloqa

15
11,3 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

106
11,7 %

Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 37,2 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 19,7 foiz, hamda sanoat – 15,4 foizni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 282 | 12,7 % | Boyovut t. | 119 | 14,0 % |
| Oqoltin t. | 153 | 21,3 % | Sayxunobod t. | 94 | 12,7 % |
| Mirzaobod t. | 148 | 16,9 % | Xovos t. | 89 | 14,4 % |
| Sardoba t | 142 | 15,7 % | Yangiyer sh. | 76 | 11,3 % |
| Sirdaryo t. | 132 | 10,7 % | Shirin sh. | 18 | 8,3 % |
| Guliston t. | 124 | 15,2 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni, birlikda




### Yillar kesimida o‘sish sur‘ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1 912

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 274

Sanoat

808

Qurilish

3 819

Savdo

287

Tashish va saqlash

662

Yashash va ovqatlanish

166


Axborot va aloqa

133

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

909

Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko‘p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (22,3 foiz), Sirdaryo (12,4 foiz), Sardoba (9,1 foiz) va Mirzaobod (8,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 52,6 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 2 224 | Yangiyer sh. | 764 |
| Sirdaryo t. | 1 234 | Sayxunobod t. | 740 |
| Sardoba t. | 907 | Oqoltin t. | 719 |
| Mirzaobod t. | 878 | Xovos t. | 618 |
| Boyovut t. | 851 | Shirin sh. | 218 |
| Guliston t. | 817 | | |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Sardoba t. | 338 |
| Mirzaobod t. | 293 |
| Oqoltin t. | 292 |
| Sayxunobod t. | 237 |
| Gulison t. | 188 |
| Boyovut t. | 165 |
| Sirdaryo t. | 164 |
| Xovos t. | 138 |
| Guliston sh. | 73 |
| Yangiyer sh. | 33 |
| Shirin sh. | 14 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 242 |
| Sirdaryo t. | 220 |
| Yangiyer sh. | 149 |
| Boyovut t. | 144 |
| Mirzaobod t. | 117 |
| Sayxunobod t. | 107 |
| Xovos t. | 100 |
| Guliston t. | 88 |
| Sardoba t. | 62 |
| Oqoltin t. | 48 |
| Shirin sh. | 35 |

| | |
|---|---|
| 2024 | 1 312 |
| 2023 | 1 500 |
| 2022 | 2 269 |
| 2021 | 2 261 |
| 2020 | 1 982 |

Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 10,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,0 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,6 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,7 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 288 |
| Sirdaryo t. | 81 |
| Mirzaobod t. | 76 |
| Yangiyer sh. | 67 |
| Guliston t. | 65 |
| Boyovut t. | 53 |
| Sayxunobod t. | 43 |
| Oqoltin t. | 40 |
| Xovos t. | 38 |
| Sardoba t. | 36 |
| Shirin sh. | 34 |




O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 51,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 27,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 21,4 foiz ulushni tashkil etdi.



**223** Fuqarolik obyektlarini qurish

**176** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



**422** Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 988 |
| Sirdaryo t. | 501 |
| Sardoba t. | 355 |
| Guliston t. | 336 |
| Boyovut t. | 331 |
| Yangiyer sh. | 301 |
| Mirzaobod t. | 265 |
| Oqoltin t. | 232 |
| Sayxunobod t. | 224 |
| Xovos t. | 204 |
| Shirin sh. | 87 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Sirdaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 3 819 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 62,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 29,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 8,6 foiz ulushni tashkil etdi.

**330**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**1 111**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**2 383**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 160 |
| Sirdaryo t. | 85 |
| Boyovut t. | 67 |
| Yangiyer sh. | 67 |
| Guliston t. | 63 |
| Sayxunobod t. | 47 |
| Oqoltin t. | 47 |
| Sardoba t. | 42 |
| Mirzaobod t. | 41 |
| Xovos t. | 35 |
| Shirin sh. | 12 |




2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 666 tani tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,7 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq–ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 95,3 foiz ulushini tashkil etdi.

**31** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**635** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# 13 Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 71 |
| Yangiyer sh. | 23 |
| Boyovut t. | 18 |
| Sirdaryo t. | 16 |
| Guliston t. | 12 |
| Shirin sh. | 10 |
| Xovos t. | 8 |
| Sardoba t. | 6 |
| Mirzaobod t. | 6 |
| Oqoltin t. | 5 |
| Sayxunobod t. | 4 |




2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,7 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 31,8 foizini tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 47,5 foizini tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 81 |
| Sirdaryo t. | 33 |
| Yangiyer sh. | 19 |
| Sayxunobod t. | 9 |
| Guliston t. | 8 |
| Sardoba t. | 8 |
| Xovos t. | 7 |
| Mirzaobod t. | 6 |
| Oqoltin t. | 6 |
| Boyovut t. | 5 |
| Shirin sh. | 3 |

## Yillar kesimida soni




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 135 ta yoki 73,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 89,7 foizi sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi;
- yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 7,1 foizini tashkil etdi.



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 63 |
| Xovos t. | 42 |
| Sirdaryo t. | 37 |
| Yangiyer sh. | 34 |
| Mirzaobod t. | 29 |
| Sayxunobod t. | 26 |
| Boyovut t. | 19 |
| Oqoltin t. | 13 |
| Guliston t. | 10 |
| Sardoba t. | 8 |
| Shirin sh. | 8 |

### Yillar kesimida soni

| | |
|---|---|
| 2024 | 289 |
| 2023 | 331 |
| 2022 | 556 |
| 2021 | 604 |
| 2020 | 582 |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami Sirdaryo viloyatidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tashish va saqlash xizmati yo‘nalishining 72,0 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishi 24,6 foizni tashkil etdi;
- pochta va kuryerlik yo‘nalishi 3,4 foizni tashkil etdi;

| Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|
| 10 | 71 | 208 |

**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi, %**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2024- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda*

Yillar kesimida soni, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**255**
**14,7 %**



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

**162**
**15,6 %**



Sanoat

**44**
**6,2 %**



Qurilish

**493**
**14,9 %**



Savdo

**36**
**13,6 %**



Tashish va saqlash

**89**
**19,6 %**



Yashash va ovqatlanish

**50**
**35,7 %**




Axborot va aloqa

**13**
**12,9 %**



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

**102**
**12,8 %**



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Guliston sh. | **261** | 14,3 % | Guliston t. | **96** | 14,7 % |
| Oqoltin t. | **149** | 22,6 % | Sayxunobod t. | **81** | 13,1 % |
| Sardoba t. | **141** | 16,8 % | Yangiyer sh. | **80** | 11,9 % |
| Mirzaobod t | **125** | 16,4 % | Xovos t. | **75** | 13,7 % |
| Sirdaryo t. | **123** | 11,1 % | Shirin sh. | **16** | 8,9 % |
| Boyovut t. | **97** | 14,5 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni, birlikda — Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 10 035 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 8 544 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarining sohalar kesimida tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich savdo – 38,7 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 20,3 foiz hamda sanoat – 12,2 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 1 831 | Oqoltin t. | 659 |
| Sirdaryo t. | 1 108 | Guliston t. | 652 |
| Sardoba t. | 840 | Sayxunobod t. | 619 |
| Mirzaobod t. | 764 | Xovos t. | 548 |
| Yangiyer sh. | 673 | Shirin sh. | 180 |
| Boyovut t. | 670 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- sentabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘zaro taqqoslanganda, ikkinchi o‘rinni xususiy korxonalar egallagan bo‘lib, xususiy korxonalarning eng ko‘pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Guliston shahri - 317 ta, Boyovut - 117 ta, Guliston - 100 ta va Sirdaryo tumanlarida - 98 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan; savdo sohasida – 426 ta, sanoat – 118 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 115 ta va qurilish sohasida – 91 ta.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 317 | Mirzaobod t. | 59 |
| Boyovut t. | 117 | Oqoltin t. | 42 |
| Guliston t. | 100 | Xovos t. | 42 |
| Sirdaryo t. | 98 | Sardoba t. | 40 |
| Sayxunobod t. | 90 | Shirin sh. | 25 |
| Yangiyer sh. | 63 | | |

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra 302 ta, 2023- yilning mos davriga nisbatan 57 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 58 tadan 74 taga (o‘sish 16 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi – 62 tadan 93 taga (o‘sish 31 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Guliston sh. | 63 | Sayxunobod t. | 13 |
| Boyovut t. | 50 | Shirin sh. | 13 |
| Guliston t. | 49 | Xovos t. | 13 |
| Mirzaobod t. | 36 | Oqoltin t. | 10 |
| Sirdaryo t. | 26 | Sardoba t. | 4 |
| Yangiyer sh. | 25 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni, birlikda — Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

27

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

100

Sanoat

6

Qurilish

43

Savdo

6

Tashish va saqlash

1

Yashash va ovqatlanish

15

Axborot va aloqa

2

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

9

Boshqa turlar

Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 1,2 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 69 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy soning 33,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 15,8 foiz), Turkiya (ulushi 11,5 foiz), Qozog‘iston (ulushi 9,1 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo t. | 55 | Guliston t. | 9 |
| Guliston sh. | 39 | Sayxunobod t. | 9 |
| Yangiyer sh. | 32 | Oqoltin t. | 6 |
| Mirzaobod t. | 22 | Sardoba t. | 5 |
| Xovos t. | 16 | Shirin sh. | 5 |
| Boyovut t. | 11 | | |

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| | |
|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 69 |
| Rossiya Federatsiyasi | 33 |
| Turkiya Respublikasi | 24 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 19 |
| Afg‘oniston | 9 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 6 |
| Buyuk Britaniya | 6 |
| Eron Islom Respublikasi | 3 |
| Boshqa davlatlar | 50 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 80 tasi qo‘shma korxonalar, 129 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 28 | Sirdaryo t. | 27 |
| 25 | Guliston sh. | 14 |
| 11 | Mirzaobod t. | 11 |
| 24 | Yangiyer sh. | 8 |
| 7 | Guliston t. | 2 |
| 9 | Boyovut t. | 2 |
| 6 | Sayxunobod t. | 3 |
| 3 | Oqoltin t. | 3 |
| 1 | Sardoba t. | 4 |
| 13 | Xovos t. | 3 |
| 2 | Shirin sh. | 3 |

Mamlakatimizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta’minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

2024- yil 1- sentabr holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 18 taga ko‘payib, 209 tani tashkil etdi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.: 67 236 70 00